

**BUGUNGI KUN DRAMATURGIYASIDA ZAMONAVIY
DRAMATURGIYASIDA ZAMANOVİY MAVZUNİNG
AKS ETTİRİLİSHİ 70 80 YILLAR MISOLIDA**

Qilichova Munira Zokirovna

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyati
instituti Sahna va ekran san’ati dramaturgiyasi 3-kurs talabasi

ANNOTATSIYA

Bugungi kunda dramaturgiya inson uchun doim dolzarb muommoga aylanib qolypadi, uning qalb sirlarini ochishga intiladi, insoniy o‘zaro munosabatlar mohiyatini anglashga harakat qiladi, bu inson tarixiy yoki zamonaviy bo‘lishining ahamiyati yo‘q. Dramaturgiyaning kelib chiqish tarixi, hozirgi kundagi uchrayorgan muommolar haqida maqolamizda so‘z yuritishga harakat qildik.

Kalit so‘zlar: Kompozitsiya, pralog, ekspodidsiya, voqealar rivoji, konflikt, tugun, kulminatsiya, yechim, epiolog, fabula, perepitiya, sujet.

Milliy yozma dramaturgiyasining kelib chiqishi va taraqqiyotini o‘rganish uchun uning tarixi, kelib chiqishiga ta’sir etgan shart-sharoitlar, amaliyoti va nazariyasining paydo bo‘lishi kabi komponentlarga e’tibor qaratish lozim. Shunday bo‘lgach eng avvalo “dramaturgiya” so‘ziga berilgan ta’riflarni o‘rganib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Dramaturgiya so‘zi nimani anglatadi? O‘zbek tilining izohli lug‘atida, “dramaturgiyani dramatik san’at; sahna asarining tuzilish tamoyillari va usullari haqidagi nazariya”, deyilsa, O‘zbekiston milliy ensiklopediyasida, “dramaturgiya - dramatik asarlar majmuasi; kino va spektaklning obrazli talqini konsepsiysi”, degan ta’rif beriladi. Tadqiqotchi va soha olimlarining izohlaridan foydalanib, dramaturgiya badiiy asar sifatida faqat teatrda jonlanishini nazarda tutib, teatr san’atining yuzaga kelishi masalalariga to‘xtalish lozim. Eradan avvalgi beshinchı asrda yashagan Yunonistonning buyuk mutaffakirlari Esxil, Sofokl, Yevripidlar tragediyaga asos soldilar. Bu davrda yozilgan dramalar (ular asosan she’riy shaklda bo‘lgan) tragediya nomi bilan atala boshladi. Antik davr komediya janrini Aristofan yuqori cho‘qqiga olib chiqdi. Qadimgi olamning buyuk mutafakkiri Arastu o‘z davrining buyuk daho asarlari haqida “Poetika” asarida fikr yuritadi. Undan keyingi davrlarga kelib, Rim dramaturgiyasi rivoj topa boshladi. Rim dramaturgiyasi va teatri yunonga nisbattan dunyoviyligi bilan farqlanadi. Rim dramaturlari Plavt, Terensiy, Sneka kabi ijodkorlar jamiyatda bo‘layotgan ziddiyatlarni turli mavzu va janrlarda ifodalashga harakat qilishdi.

Dramatik tur o‘zbek adabiyotiga kirib kelganiga bir asr bo‘ldi. Ilk dramatik asar sifatida tan olingan Behbudiyning "Padarkush" asari 1911 yilda yozilgandi. Yuz yillik tarix va tajribaga ega bo‘lgan bu o‘zbek dramaturgiysi o‘tgan asrning boshi va ikkinchi jahon urishi davrini hisobga olmaganda har doim ham boshqa adabiy turlardan sustroq rivojlangan. Bu susayish ayniqsa o‘tgan asrning "turg‘unlik davri" deb atalgan 70-80 va mustaqillikning dastlabki yillarda aniq seziladi. Bunday sustkashlikning muayyan obyektiv va subyektiv sabablari ham bor. Avvalo, shuni achinish bilan ta’kidlash o‘rinliki, adabiyotimizda faqat dramaturgiya bilan shug‘illanadigan maxsus ijodkorlar juda kam. Borlari ham tezda shuhrat topib kashfiyat darajasidagi sahna asarlari yaratib, teatrarning doimiy hamkoriga aylanib ketavermaydilar. Ikkinchidan, mabodo, shunday talantli drama yaratilib, sahnalashtirilsa ham unga tomoshabinni jalb etish muammosi tug‘iladi. Uchinchidan bozor iqtisodiyoti tufayli dramaturg o‘z asari bilan boyib ketayotgani yo‘q. Shunga qaramay so‘ngi 20 yil ichida drama yaratilmay ham qolmadi, sahna bo‘shab ham qolmadi, ozmi-ko‘pmi tomoshabin teatrga ham kirib turdi Eng muhimi so‘ngi yillar dramaturgiysi shakl va mazmun tomondan yangilandi, janr imkoniyatlari kengaydi. San’atkorlar jahon dramaturgiyasining barhayot tajribalaridan unumli foydalana boshladilar. Bu yillar ananalarga ko‘ra ko‘plab she’riy dramalar dunyoga keldi. E. Vohidovning "Istanbul fojiasi", A. Oripovning "Sohibqiron", U. Qo‘chqorning "Rasululloh kotibi", R. Bobojonning "Yusuf va Zulayho" kabi asarlari ana shu usulda bitilgan. Dramaturgiyaning rivojlanishi va yangilanishi mavzu ko‘laming kengayishida yaqqol ko‘rinadi. Bu borada ayniqsa tarixiy mavzudagi sahna asarlarning ko‘payganligini alohida takidlash lozim. Tarixga munosabatning o‘zgarganligi, buyuk ajdodlarimizning badiiy, ilmiy va ma’naviyma’rifiy merosini qadrlash, tarixiy manbalarni o‘rganish tufayli xalqimiz o‘zligini anglash jarayonini boshidan kechirdi. Ayniqsa Amir Temur, Ahmad al-Farg‘oniy, Mashrab singari murakkab tarixiy shaxslar haqida rang-barang janrlarda turli shakllardagi sahna asarlari dunyoga keldi. Bular orasida Hayotda ziddiyatlar keskin va sokin bo‘lgani singari badiiy konfliktning ham turli ko‘rinishlari mavjud. Ular qahramonlar o‘rtasidagi oshkora kurash tarzida ham, personajlarning o‘z o‘z ko‘nglidagi olishuvlar tarzida ham nomoyon bo‘ladi. Shuningdek badiiy konflikt har bir adabiy tur va janrda o‘ziga xos tarzda ifodalangan bo‘ladi. U drama (komediya, tragediya, pyesa) asarlarida tamoman boshqacha holda ko‘rinadi. Umuman har bir barkamol baddiy asar konflikt, shakl va mavzu, mazmun va g‘oya singari o‘z unsirlarini qay tarzda namoyon etishidan qat’iy nazar, u hayotning muayyan bir ko‘rinishini ta’sirchan akslantirgan, ijodkor yaratgan go‘zallikdir. Kelajakda yosh ijodkorlarimiz mohirona qalam tebratishlari uchun hozirdanoq imkon yaratmoq lozim. Har bir tuman markazlarida ijodxonalar tashkil qilinishi, musiqa maktablarida, madaniyat markazlarida yosh qalamkahlar to‘garaklari doimiy ravishda fa’oliyat

yuritishi, bu albatta har bir ijodkorni ilhomlantiradi, mehnatga chorlaydi va kun kelib ulardan shoh asarlar chiqishi muqarrar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Y.Solijonov. "Hozirgi adabiy jarayon". T. "Innovatsiya-Ziyo".2020. 92 ,93.b
2. Matluba Isokova. "Dramaturg mahorati". T. 2021. 4 b.
3. Matluba Isokova. "Dramaturg mahorati". T.2021.3 b.
4. To'laxo'jayova.M., Qozoqboev. T. "Drama nazariyasi".T. Fan va texnologiyalar markazi.2014. 49 b.
5. Hikmatullaevna, M. K. (2022). DEVELOPMENT OF STUDENTS' CREATIVITY AS A PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL PROBLEM. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(10), 571-574.
6. Kuvvatova, M. (2022). DEVELOPMENT OF STUDENTS' CREATIVITY AS A PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL PROBLEM. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(10), 665-670.
7. Quvvatova, M. (2022). LEARNING TO DEVELOP THE CREATIVITY OF HIGHER EDUCATION STUDENTS. Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyat, 1(28), 131-134.
8. Quvvatova, M. (2022). WAYS OF DEVELOPING CREATIVE ABILITIES OF STUDENTS OF HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS. Models and methods in modern science, 1(18), 4-7.